


AMALIY MASHG'ULOT-12

Mavzu: Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar ko'ylagini yeng va yoqa qismini modellashtirish, andazani tayyorlash, gazlamaga joylashtirish va gazlama sarfini hisoblash.

O'tkazma eng chizmasi (43-rasm, a)

1. To'g'ri burchak chizib burchagiga A nuqta qo'yiladi.
2. $AE = YeU = 39$ sm (yeng uzunligi).
3. Asos chizmasidagi Ye1 Ye3 nuqtalar tutashtiriladi o'rtasini topib X bilan belgilanadi va K4 nuqta bilan birlashtiriladi.
4. $AO = K4X - 3,5 = 12,5 - 3,5 = 9$ sm (yeng boshi balandligi, 3,5 sm — hamma razmerlar uchun).
5. A, O, E nuqtalardan gorizontall chiziqlar o'tkaziladi.
6. $AA1 = Ye1A + QYe1A = 19 + (6 - 8) = 26$ sm (yeng kengligi).
7. A1 nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkazilib yeng boshi balandligi chizig'i va etak chizig'i bilan kesishgan nuqtalar O1, E1 bilan belgilanadi.
8. $Aa = AA1 : 2 = 26 : 2 = 13$ sm (yeng o'rtasi).
9. a nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi va E2 nuqta aniqlanadi.
10. O1 va O nuqtalar a nuqta bilan birlashtiriladi.
11. aO1 chiziq o'rtasini O2 nuqta bilan belgilanadi.
12. O1 O2 chiziq o'rtasidan pastga perpendikulyar o'tkazilib unda 1 sm qo'yiladi.
13. O2a chiziq o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazilib unda 1 sm qo'yiladi.
14. Oa chiziq o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazilib unda 1,5 sm qo'yiladi.
15. O, 1,5 sm, a, 1 sm, O2, 1 sm, O1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
16. EE2 chiziq o'rtasidan perpendikulyarda pastga, E2E1 chiziq o'rtasidan perpendikulyarda yuqoriga 1 smdan qo'yiladi.
17. E, 1 sm, E2, 1 sm, E1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.
18. $EE3 = EE2 : 2$ (taqilma o'rni).
19. $E3 E4 = 6 - 8$ sm (taqilma uzunligi).



43-rasm. O'tkazma yeng va yoqalar chizmasi.

Bolalar ko'ylagida uchraydigan yoqalar

Yaxlit qaytarmali tik yoqa (43-rasm, b)

1. To'g'ri burchak chizilib burchakka A nuqta qo'yiladi.
2. $AA_1 = BnYaA + (0,5-1) = 14,5 + (0,5-1) = 15$ sm (yoqa uzunligi).
3. $Aa = 1-2$ sm (yordamchi nuqta).
4. a nuqta A1 nuqta bilan birlashtiriladi va 3 bo'lakka bo'linadi hamda I, II nuqtalar bilan belgilanadi.
5. I nuqtadan yuqoriga 0,3 sm qo'yiladi.
6. A1 va II nuqtalar orasiga 2 ga bo'linib pastga 0,2 sm qo'yiladi.
7. a, 0,3 sm, II, 0,2 sm, A1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi (o'tkazma chizig'i).
8. A1 nuqtadan yuqoriga vertikal chiziq o'tkaziladi.
9. $aa_1 = 7-8$ sm (yoqa kengligi).
10. a1 nuqtadan gorizontal chiziq o'tkazilib A1 nuqtadan o'tkazilgan vertikal bilan kesishgan nuqta V bilan belgilanadi.
11. $VV_1 = 3-5$ sm (yoqaning uchi).
12. $A_1 A_2 = 2-2,5$ sm (o'tim haqi).
13. $A_2 A_3 = 0,5-1$ sm (yordamchi nuqta).
14. $A_1 A_4 = 2-2,5$ sm (yoqaning tik qismi).
15. a2 A4 chiziq o'tkaziladi, ya'ni aA1 chizig'iga parallel qilib o'tkaziladi.
16. A4 nuqta V1 nuqta chizg'ich bilan birlashtiriladi.

17. A4 nuqta A3 nuqta bilan ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.

Ochiq bortli qaytarma yoqa (44-rasm, v)

1. To'g'ri burchak chizilib burchakka A nuqta qo'yiladi.
2. $AA_1 = B_n Y_{aA+1} = 14,5 + 1 = 15,5$ sm (yoqa uzunligi).
3. A1 nuqtadan yuqoriga vertikal chiziq o'tkaziladi.
4. $A_1 A_2 = 1$ sm (yordamchi nuqta).
5. $AA_3 = AA_1 : 2$ (yoqaning o'rtasi).
6. A, A3, A2 nuqtalar ravon egri chiziq yordamida tutashtiriladi.
7. $AV = A_1 V_1 = 7-8$ sm (yoqa kengligi).
8. $V_1 V_2 = 3-5$ sm (yoqa uchi).
9. V2 nuqta A2 nuqta bilan birlashtiriladi.
10. $VV_3 = 1$ sm (yoqa kengligini to'g'rilash).
11. V3 nuqta V1 nuqta bilan birlashtiriladi.